

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“MOLIYA”  
KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida  
*UDK:336:338.24:658*

AKMALDINOV ANVARJON RASHIDJON O'G'LI

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY  
MENEJMENTNI TASHKIL ETISH MEXANIZMI

70410401 – Davlat moliyasi va xalqaro moliya  
mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan




**D I S S E R T A T S I Y A**

Ilmiy rahbar:  
I.f.d., prof. I. Alimardonov

TOSHKENT-2023

Magistrlik dissertatsiyasi titul varag'ining orqa tomoni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Magistrlik dissertatsiya ishi  
" Moliya " kafedrasida dastlabki himoyadan  
o'tgan. 2 - sonli bayonnoma " 19 " aprel 2023 y.

Kafedra mudiri : X.X.Xudoyqulov  imzo \_\_\_\_\_ sana  
Ilmiy rahbar: I.M.Alimardonov  imzo \_\_\_\_\_ sana  
Talaba: A.R.Akmaldinov  imzo \_\_\_\_\_ sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida

2023 yil " 15 " may

№ MBF-08/1 raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTASIYA

Hozirda jahon miqiyosida moliyaviy menejmentning asosiy funksional elementi hisoblangan moliyaviy rejalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari keng tadqiq etilmoqda. Xususan, global pandemiya sharoitida tashqi bozorlardagi o'zgaruvchan muhitga tez moslanuvchan moliyaviy rejalashtirish tizimi va uning strategik rejalar bilan uyg'unlashtirilgan mukammal modelini shakllantirish yuzasidan maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, moliyaviy menejmentning asosiy funksional elementlaridan biri kompaniyalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini kompleks baholashning keng ko'rsatkichlar arsenalini mujassamlashtiruvchi moliyaviy diagnostikaning tashkiliy arxitekturasini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish, xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish, sanoatning etakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash. Energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritishirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli davrda barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlari sifatida e'tirof etilgan (Farmon 2022). Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy

menejmentini shakllantirish nazariyasi va uslubiyotini takomillashtirish yoʻnalishlarini oʻrganish hozirgi zamon moliya fanining yangi va murakkab tadqiq predmeti sifatida namoyon boʻlmoqda. SHu bilan birga aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy menejmentini shakllantirish jarayonini tadqiq qilishning nazariy-metodologik bazasi hali etarli darajada tizimlashtirilmagan va u asosan korporativ moliya, korporativ boshqaruv konsepsiyalariga asoslanib qolmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, mulkchilikning istiqbolli shakli boʻlgan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejmentini rivojlantirishni taʼminlash yuzasidan ilmiy-amaliy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

**Kalit soʻzlar:** *moliya, korporativ moliya, aksiyadorlik jamiyati, moliyalashtirish, moliyaviy menejment, korporativ boshqaruv, qimmatli qogʻoz, kapital, risk, depozit, kopleks baholash*

## ANNOTATION

Currently, issues of improving the financial planning system, which is considered the main functional element of financial management in the world economy, are widely studied. In particular, in the context of a global pandemic, targeted research is being carried out on the formation of a rapidly adaptable financial planning system to the changing environment in foreign markets and its perfect model, harmonized with strategic plans. Also, one of the main functional elements of financial management is the focus on improving the organizational architecture of financial Diagnostics, which embodies the broad arsenal of indicators for the complex assessment of financial and economic activities of companies.

In the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026, approved by the decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. 60 of January 28, 2022, increasing the export potential of the Republic by actively continuing the support system for the activities of export enterprises, further developing the export potential of local industries, introducing standards that meet foreign market and international requirements, , leading industries and further liberalization of the economy and the completion of transformational processes. Liberalizing the energy resources and natural gas markets with the establishment of guarantees of social protection, we introduce social consumption norms to attract private investments to the industry and protect the needy population development of industrial cooperation between industries and territorial enterprises, the widespread introduction of programs to increase labor productivity in industrial sectors has been recognized as a necessary prerequisite for the sustainable development of the country's economy in the long term . Therefore, the study of the directions for improving the theory and methodology of the formation of financial management of Joint-Stock Companies is now manifested as a new and complex subject of research in modern financial science. At the same time, the theoretical and

methodological base of research on the process of formation of financial management of Joint-Stock Companies has not yet been sufficiently systematized, and it remains largely based on corporate finance, corporate management concepts. This, in turn, remains one of the urgent problems when developing scientifically-practically based conclusions and recommendations on ensuring the development of financial management of Joint-Stock Companies, a promising form of ownership.

*Keywords: Finance, Corporate Finance, Joint Stock Company, financing, financial management, corporate governance, securities, capital, risk, deposit, Coplex valuation*

## MUNDARIJA

Annotatsiya.....	5
Mundarija.....	7
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	9
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	10
Keltirilgan qisqartmalar.....	11
<b>I BOB. KIRISH.....</b>	<b>12</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	12
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	13
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	14
1.4 Tadqiqot obyekti va predmeti.....	15
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	15
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	15
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>17</b>
2.1.Kirish.....	17
2.2.Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	19
2.3 Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	22
<b>III BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>28</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	29
3.3 Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	29
3.4 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	29
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	29
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	30
<b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>31</b>
4.1. Xorijiy investorlarni milliy kapital bozoriga jalb qilish ko‘lamini kengaytirishning nazariy asoslari.....	31
4.2. Xorijiy investorlarni milliy kapital bozoriga jalb qilish ko‘lamini kengaytirishning holati tahlili.....	32
<b>V BOB. XULOSA.....</b>	<b>56</b>

5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	56
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	59
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	62



## I BOB. KIRISH

### 1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati olib borilmoqda. Chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, korporativ boshqaruv tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda «korxonalarda korporativ moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish foydalanilmayotgan resurslar va moliyaviy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, korxonalar moliyaviy siyosati sohasida shakllanib qolgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri – korxonalar miqyosida moliyaviy menejment samaradorligini oshirish imkonini beradi». SHuning uchun ham har bir mamlakatda shakllantirilgan milliy iqtisodiyot va uning taraqqiyotini o'ziga xos jihatlari moliya tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy qarorlarni qabul qilish jarayonlari va mexanizmi, jahon iqtisodiyoti rivojlanish siklining turli bosqichlarida, siyosiy, ijtimoiy va institutsional omillar ta'siri ostida o'zgarib turuvchi makroiqtisodiy vaziyatlar tufayli amaliyotga joriy etilishi bo'yicha turli risklarga duch keladi. Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalari, jumladan, bugungi kunda aksariyat davlatlar iqtisodiyotida kutilayotgan retsessiya holatlari O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning risklilik darajasiga ta'sir etmay qolmaydi. Biroq, ta'kidlash lozimki, inqiroz nafaqat bankrotlik holatlari yoki ko'plab moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi, balki iqtisodiy o'sishni qayta tiklash va biznesni keng ko'lamli modernizatsiya qilish zaruriyatini anglagan holda yangicha yondashuv va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlar korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirish borasida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga ega bo'lgan bo'lsada, biroq xalqaro amaliyotda kompaniyalar istiqbolini prognoz qilishda keng foydalaniladigan korporativ baholash instrumentlarini joriy etishning amaldagi holati bo'yicha salbiy jihatlarni bartaraf etish kabi dolzarb masalalar muhim